



THE PHILOSOPHICAL ESSENCE AND SCIENTIFIC ANALYSIS OF IBN ARABI'S SUFI VIEWS

Mohlaroyim Yarashova

Lecturer

Asian International University

Uzbekistan, Bukhara

E-mail: mohlaroyimyarashova@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: sufism, tariqa, Sharia, creed, ethics, perfection, teachings, spirituality, philosophy, reflection.

Received: 19.01.25

Accepted: 21.01.25

Published: 23.01.25

Abstract: This article examines the significant contribution of the prominent Sufi and philosopher Ibn Arabi to the development of religious and mystical thought in the Muslim world from the perspective of the history of philosophy. His works present important philosophical ideas such as unity (tawhid), being (wujud), cosmos (kawn), knowledge, humanity, ethics, perfection, and its qualities. These ideas are articulated within a systematic approach that laid the foundation for scientific and intellectual revival in the Muslim world. It is also analyzed how his ideas served not only as a theoretical source for Sufi tariqas but also had a profound impact on the further development of philosophical thought.

IBN ARABIY TASAVVUFİY QARASHLARINING FALSAFİY MOHIYATI VA İLMİY TAHLİLİ

Mohlaroyim Yarashova

o'qituvchi

Osiyo xalqaro universiteti

O'zbekiston, Buxoro

E-mail: mohlaroyimyarashova@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: tasavvuf, tariqat, shariat, aqida, axloq, komillik, ta'lilot, ma'naviyat, falsafa, tafakkur.

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk mutasavvif va faylasuf Ibn Arabiy ijodining musulmon dunyosi diniy-tasavvufiy tafakkuri rivojiga qo'shgan ulkan hissasi falsafa tarixi nuqtai nazaridan o'r ganilgan. Ibn Arabiy o'z

asarlarida tavhid, vujud, kavn, ilm, inson, axloq, komillik va uning sifatlari kabi muhim falsafiy g'oyalarni tizimli yondashuv bilan taqdim etib, ular orqali musulmon dunyosida ilmiy va tafakkuriy jonlanishning poydevorini ochib berganligi tadqiq etilgan. Uning g'oyalari nafaqat so'fiylik tariqatlari uchun nazariy manba sifatida xizmat qilishi, balki falsafiy tafakkurning keyingi bosqichlariga ham chuqur ta'sir ko'rsatganligi falsafiy tahlil etilgan.

ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ И НАУЧНЫЙ АНАЛИЗ ТАСАВВУФСКИХ ВЗГЛЯДОВ ИБН АРАБИ

Мохларойим Ярашова

Преподаватель

Азиатского международного университета

Узбекистан, Бухара

E-mail: mohlaroyimyarashova@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: суфизм, тарикат, шариат, академия, нравственность, совершенство, учение, духовность, философия, раздумья.

Аннотация: В данной статье с точки зрения истории философии рассматривается значительный вклад выдающегося суфия и философа Ибн Араби в развитие религиозно-мистического мышления мусульманского мира. В его трудах представлены такие важные философские идеи, как единство (тавхид), бытие (вуджуд), космос (каун), знание, человек, этика, совершенство и его качества. Эти идеи изложены в систематическом подходе, который заложил основу для научного и интеллектуального возрождения в мусульманском мире. Также проанализировано, что его идеи служили не только теоретическим источником для суфийских тарикатов, но и оказали глубокое влияние на дальнейшее развитие философского мышления.

KIRISH

Allomalarimizning tabarruk merosi nafaqat ma'naviy mazmuni, balki hajmi jihatidan ham shu qadar boyki, uni tubsiz ummonga qiylagining keladi. Bu ummon qa'ridagi jozibali javohirlar ohanrabosi shu qadar kuchliki, u zamonlar osha, makonlar uzra, dunyo ahlini lol qoldirib, o'ziga jalb qilib kelmoqda. Uning o'rganilmagan, kashf etilmagan qirralari juda ko'p. Ularni kashf etish nafaqat o'zlikni anglash, balki ajdodlarga munosib voris ekanligimizni ro'yobga chiqarish uchun ham muhimdir. Ana shu ummondan terib olingan noyob va nodir javohir musulmon tasavvuf

olamining yirik namoyandasi Muhyiddin Ibn Arabiyning merosidir. Mutasavvif hayoti va ijodi hozirga qadar o‘zining izdoshlari, tarafдорлари yoki munaqqidlariga ega.

Ibn Arabiy ijodi musulmon dunyosi diniy-tasavvufiy tafakkuri rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Mutasavvifning asarlari va she’riyati juda ko‘plab faylasuflar, mutasavviflar hamda so‘fiylar diqqat-nazarini o‘ziga jalb qilgan. Ibn Arabiy o‘z asarlarida tawhid, vujud, kavn, ilm, uning turlari, inson, axloq, komillik va uning sifatlari kabi ilg‘or g‘oyalarni ilgari surib, tizimlashgan yaxlit holatga olib chiqdi. Bu o‘z navbatida juda ko‘plab so‘fiylik tariqatlari uchun nazariy manba sifatida xizmat qildi. Bunday holatning vujudga kelishidan musulmon dunyosida tafakkuriy jonlanish boshlandi hamda uning asarlariga sharhlar yozildi. Ibn Arabiy falsafiy va tasavvufiy tafakkur rivojida yetakchilardan biriga aylandi. Mutasavvif o‘z davrida ilg‘or g‘oya va konsepsiyalari uchun an’anaviy shariat arboblari va faqihlar tomonidan qattiq qarshilikka uchradi.

ASOSIY QISM

Ibn Arabiy yashab ijod qilgan davr aynan shariat namoyondalari va faqihlarining so‘fiylikka nisbatan salbiy munosabatda bo‘lganlari va unga qarshi qattiq g‘oyaviy kurashlar olib borganlari bilan xarakterlanadi. Bu guruhlarning vakillari tasavvufiy maktab namoyondalarining yangicha g‘oyalarni tahlil qila turib, ulardagi ma’lum ma’noda islomdagи shariat mazhablariga mos kelmaydigan qirralarini asos qilib kurashdilar. Ularning fikricha, mutasavvif va so‘fiylarning o‘zlikni anglash, borliqni idrok etish borasidagi yangicha talqindagi fikrlarini “ta’til” (Xudoni inkor etish **تعطيل**) va “zandaqa” (islom me’yorlaridan) uzoqlashish **زندقة** deb tushundilar.

Ibn Arabiy g‘oyalari va ta’limotini rad etgan, ulardagi g‘oyalarni “takfir” (kufr) deb qoralagan keyinchalik uning asarlari Ibn Arabiyini rad etishda asos sifatida foydalanilgan mashhur shayxlardan biri Ibn Taymiya (1263-1328) dir. Bu raddiya tanqid qilish emas, balki falsafiy va diniy asoslarga ega bo‘lgan g‘oyaviy qarshilik hisoblanadi. Ibn Taymiya raddiyasini o‘zi mansub bo‘lgan hanbaliylik mazhabi nuqtai nazaridan bildirgan. Ibn Arabiyning “Vahdatul vujud” **وحدة الوجود** (“borliqning yagonaligi”) nazariyasi Ibn Taymiyaning unga qarshiligiga sabab bo‘lgan va uning raddiyasi aynan shu nazariyani rad etishga asoslangandir. Ibn Taymiyaning “Jome’ur rasoyil” (“Maktublar to‘plami”) asarida: “Futuhot” muallifi Ibn Arabiy, Ibn Sab’iyn, Ibn Faridlar borliqni yagona (ya’ni, Alloh borliqdan tashqarida emas) va “yaratilgan” (“maxluq”) ni “Yaratuvchi” (“Xoliq”) bilan bir deb ta’kidlaydilar va adashishlarining o‘zagi ham shunda. Ularning fikrlari faylasuf, so‘fiy va mutakallimlar, ba’zida qarmat va botiniylarning qarashlaridan olingandir. Bular shunday toifaki, na so‘fiyona, na faylasufona bo‘lgan fikrlarining tasdig‘i uchun bir mazhabning eshididan ikkinchi bir mazhabning eshigiga chopadilar” [1].

Ibn Taymiya Ibn Arabiy va uning izdoshlarini Qur’onni botiniy tahlil qiladigan shialarga mansub hisoblaydi. Shuningdek, u Ibn Arabiyini “Xudosiz shialar”dan bo‘lgan “Ixvonus safo”

guruhi yo‘lidan borgan, ya’ni “payg‘ambarlik maqomiga chiqish yo‘li ochiq”, deb hisoblovchilar guruhiga ergashganlardan biri deb yozadi [2].

Ibn Arabiyni rad etishda muhim o‘rin tutganlardan yana biri Ibn Taymiyaning shogirdi Shamsuddin az-Zahabiydir. U Ibn Arabiyning “Fususul hikam” (“Hikmatlar shodaları”) asari to‘g‘risida shunday xulosa yasaydi: “Agar bu kitobda kufr yo‘q deb hisoblasak, demak bu dunyoda ham kufr yo‘q deb hisoblashimizga to‘g‘ri keladi” [3].

Sa’duddin at-Taftazoniy (1322-1390), Burhonuddin al-Baqo‘iy (1406-1480) lar ham Ibn Arabiy va uning izdoshlarini tanqid qilgan. Al-Baqo‘iy Ibn Arabiy va uning safdoshi Umar ibn al-Faridlarning falsafiy-tasavvufiy g‘oyalarini qoralab, butun boshli “Tanbiyu-l-g‘aby bi takfiri Umar ibn al-Farid va ibn Arabiy” (“Bilimsizlarni Umar ibn al-Farid va Ibn Arabiy larning kufridan ogoh etish”) deb nomlangan asarini yozadi. Asarida Ibn Arabiyiga baho berishda qiynalayotganlarni unga salbiy munosabatda bo‘lishga chaqirib, unga ergashganlarni bu yo‘ldan qaytishlariga undaydi. Ustozi Ibn Taymiyaga ergashib, Ibn Arabiyini kofirlikda ayblab yozadi: “Men Ibn Arabiyning “Fusus” ini o‘qib, Ibn Arabiyning “vahdatul vujud” ini rad etolmayotgan bir guruh mashhur so‘fiylar bilan uchrashdim. Shundan so‘ng men ularning adashish va kufrda bo‘lganliklarini isbotlaydigan bu asarni yozishga kirishdim” [4]. Asarida Ibn Arabiyning “vahdatul vujud” nazariyasida do‘zax azoblari bo‘lmasligi to‘g‘risidagi va dinlarning barchasi aslida yagona din haqidagi qarashlarini qattiq tanqid ostiga oladi. O‘z tanqidida “vahdatul vujud” nazariyasi “vahdatul mutlaq” (“Mutloq yagonalik”) ma’nosini ifodalaydi deb tushuntiradi. Shuning uchun Ibn Arabiyini “usulud din” (din asoslari الدين أصول ni buzishda ayblaydi.

“Ibn Arabiy, - deb yozadi al-Baqo‘iy, - odamlarni u dunyoda do‘zax azobi bo‘lmaydi, agar bo‘lganda ham u azob emas, maxsus rohat turida bo‘ladi, deb ishontiradi [4]. Al-Baqo‘iy fikricha, bunday ta’limot insonlarni to‘g‘ri yo‘ldan chiqarib, Qur‘on oyatlarining haddan tashqari buzib tafsir va sharhlanishiga olib keladi. Hanbaliylar nazdida bu diniy emas, tasavvufiy buzg‘unchi g‘oyalardir.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, so‘fiylik va tasavvuf ilmi ayniqsa, Ibn Arabiy ta’limoti o‘z davri va undan keyingi davrlarda muayyan qarshiliklar va rad etishlarga uchragan. Bu qarama-qarshilikning yuzaga kelishi tabiiy bo‘lib, an’anaviy islom shariati tarafdarlari tomonidan amalga oshirilgan. Bizning nazarimizda buning ikki sababi mavjud.

1. An’anaviy islom shariati barcha insonlar va tabaqa vakillari uchun oddiy va tushunarli bo‘lib, uning farz, sunnat, mustahab va boshqa amallarini murakkab ruhiy talqin qilinishi keng jamoatchilik uchun qabul qilinishini qiyinlashtirgan.

2. Ko‘pchilik uchun tushunarsiz bo‘lgan bu murakkab ta’limotning oddiy xalq tomonidan noto‘g‘ri qabul qilinishi natijasida islomiy aqidalarning buzilishi mumkinligidan xavfsiragan shariat peshvolari uni rad etishgan.

Shularni nazarda tutadigan bo‘lsak, mumkinki, Ibn Arabiy ta’limoti va g‘oyalariga, borliqni idrok etishning o‘ziga xos konsepsiyasiga qarshi katta g‘oyaviy kurash bo‘lgan. Bu ma’naviy kurashga olimlar va shayxlardan tashqari shoir hamda adiblar ham aralashidilar. Ibn Arabiy g‘oyalariga qarshi qasidalar bag‘ishlagan Sharafuddin ibn al-Muqriy (1353-1433), “Radd ’ala Ibn Arabiy” (“Ibn Arabiyga raddiya”) asarining mualifi Muhammad Badruddinlar shular safiga kiradi.

Ibn Arabiyning so‘fiyona g‘oyalariga qarshi fikrlarni Ibn Xaldun (1332-1406) asarlarida ham uchratish mumkin. “Muqaddima” asarida Ibn Arabiy va uning izdoshlarini noto‘g‘ri tasavvurlari bilan islomdan ancha uzoqlashganliklarini ta’kidlaydi. U Ibn Arabiyni “mutaxallif” (qoloq المُتَخَلِّفُ) so‘fiylar safiga kiritib, uning “kashf” borasidagi fikrlari inson ruhiyatidan tashqarida bo‘lganligi uchun unga ergashganlarni Xudoni “tajsim” (تجسيم) (“jismlashtirish”) va al-hulul va-l-vahda و الوحدة الحول panteizm kabi noto‘g‘ri g‘oyalar ta’siriga tushgan deb hisoblaydi [5].

XIX asrning boshida hanbaliylarning so‘fiylik ta’limotlariga qarshi turishining yangi davri boshlandi. Bu kurashning g‘oyaviy rahnamolaridan biri hanbaliy Sulaymon ash-Shayxdir (vafoti 1818 y). U Ibn Arabiy va uning “vahdatul vujud” nazariyasiga ergashganlarni “mushrikun” (المُشْرِكُون) Allohga shirk keltirganlar) deb ataydi. Sulaymon ash-Shayx dinlarning yagonaligi va borliqning yagonaligi to‘g‘risidagi aqida hamda Qur’onning botiniy mazmunlari to‘g‘risidagi an‘anaviy tafsirlardan uzoq bo‘lgan har qanday ko‘rinishdagi tafsir va talqinlarni mutloqo noto‘g‘ri deb e’lon qiladi. Alloh va uning zoti to‘g‘risidagi shariatda qabul qilingan me’yoriy fikrlardan boshqasini rad qildi. Sulaymon ash-Shayx Ibn Arabiy kabi so‘fiy faylasuflarni borliqning cheksizligi to‘g‘risidagi fikrlari uchun ularni nafaqat Xudoga shirk keltirganlar balki, xudosizlar deb, xudosizliklariga islamni niqob qilganlikda ayblaydi [6].

Ba’zi manbalarda Ibn Arabiy ta’limotidan keng ommani chalg‘itish maqsadida Qur’on va Sunnaning ayrim hukmlarini noto‘g‘ri talqin qilganlikda ayblash eng qulay usul hisoblangan. Abu Homid G‘azzoliyning “Kimki Qur’on va Sunnadagi tushunarsiz so‘zlarni o‘ziga boshqa ma’nolarda sharhlasa, u iymonsizdir” [7], – degan hukmi asos vazifasini o‘tagan. As-Suyutiyning bu hukmni asos sifatida keltirishiga sabab, bizning nazarimizda so‘fiylarning turli xil tasavvufiy istilohlari odamlarni ularni tushunishdan chegaralagan.

Ayrim tadqiqotlarda Ibn Arabiyni rad qila turib, ishonch bilan yozadilarki, uning ko‘plab asarlari, jumladan “Fususul hikam” (“Hikmatlar shodalari”) asari u tomonidan o‘ylab topilgan xayoliy g‘oyalar majmuidir. Al-Xaskofiyning “Duraru-l-muxtar” (“Tanlangan durlar”) asarida Ibn Arabiy asarlarini o‘qishni man etgan va uni iymonsiz deb atagan.

Ibn Arabiy ta’limotiga qarshilik qay darajada yuqori ko‘rinish kasb etmasin, uning ta’limotini qabul kilganlar, hamda asarlariga sharhlar yozib, uni “ash-Shayxu-l-akbar” (“Ulug‘

shayx”), valiy deb unga ergashganlar ham ko‘p bo‘lgan. Ular o‘z pirlarini rad qilganlarga qarshi g‘oyaviy kurashganlar.

Ibn Arabiy va uning ta’limotini himoya qilgan shogirdlaridan Sadruddin Qo‘naviy (1209-1247), izdoshdaridan Fayz Koshoniy (1598-1680) lar maydonga chiqdilar. Abdulvahhov ash-Sha’roniy (1493-1565) ning xizmati bilan Ibn Arabiy ta’limoti keyingi davrlarda ham shuhrat qozondi. “at-Tabaqot as-sufiyya” (“So‘fiylik tabaqalari”), “al-Kibrit al-Ahmar fi bayani ulumi-shayxi-l-akbar” (“Ulug‘ shayxning ilmlarini bayon qiluvchi chaqmoq tosh”), “al-Yavaqit va-l-javahir fi bayani aqoidi-l-akabir” (“Buyuk aqidalarni bayon qiluvchi yoqut va javohirlar”) asarlari bilan Ibn Arabiy ta’limotini diniy-falsafiy, aqidaviy-tasavvufiy jihatdan asosladi. Ash-Sha’roniy “al-Yavaqit”ning muqaddimasida Ibn Arabiyni himoya qilib, shunday yozadi: “Odamlar uni tushunmasligining sababi u juda yuqori pog‘onada turib gapiradi, uning ayrim so‘zlari shariatga ziddek tuyulsada, aslida unda o‘ziga xos tadbir bor” [8].

XULOSA

Ibn Arabiy ilmiy va falsafiy merosining turlicha baholanishi uning qanchalik kuchli va ta’sirchan tasavvufiy-falsafiy ta’limot ekanligini ko‘rsatmoqda. Ibn Arabiy tasavvufiy ta’limotiga oid tadqiqotlar tahlilidan shunday xulosaga kelindi:

1. Ibn Arabiy merosiga o‘z davri va keyingi asrlar mobaynida davom etib kelayotgan turlicha munosabatlar to‘g‘risida tadqiqotlar ilmiy-tasavvufiy va falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilindi.
2. Ibn Arabiyga oid tadqiqotlar islom tasavvufi tarixida muhim o‘ringa ega ekanligi hamda bugungi kundagi ilmiy tadqiqotlarda tasavvuf falsafasining asosi sifatida ekanligi tahlil qilindi.
3. Ibn Arabiy ta’limotining musulmon dunyosida bahs-munozaraga aylanishi falsafiy hamda hamda tasavvufiy maktablarga ta’sir etganligi ochib berildi.
4. Ibn Arabiy ijodi insoniyatning o‘ziga xos ma’naviy yuksalish konsepsiysi sifatida tarixda qoldi.

Xulosa qilinganda, Ibn Arabiy bizning nazarimizda hozirgacha faylasuf, mutakallim, so‘fiy, adib, mufassir, shoir va o‘ta kuchli tasavvuf nazariyotchisi sifatida murakkab shaxs bo‘lib qolmoqda. Bu murakkablik islom tarixidagi g‘oyalar kurashida Ibn Arabiyning xos o‘rnini belgilaydi. Uning ta’limoti ustidagi qizg‘in bahslar islom tarixida unga “faylasuf” maqomini bergen bo‘lsa, jahon tarixida u “faylasuf so‘fiy” nomini oldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ibn Taymiya. Ibtalu vahdatil vujud. Kuvayt: Jam’iyat ihyoit turosil islomiy, 1992. 167-bet.
2. Ibn Taymiya. Ar-Raddu alal mantiqiyyin. Bayrut: Darul fikr. 1985. 468-bet.
3. Az-Zahabiy. Siyaru a’lamin nubala, Bayrut: Muassasatur risala. 1971. 48-bet.

4. Burhoniddin al Baqo‘iy. Tanbih g‘aby bi takfiri Umar ibn al Farid va Ibn Arabiy. Qohira: Darul hilal, 18-19 betlar.
5. Muqaddimatu Ibn Xaldun. Bayrut: Muassasatul kutub vas-saqafa, 1994. 233-bet.
6. Muhammad Xalil Harros. Sharhul aqidatil vasatiyya li shayxul islam as –Suyutiy. Saudiya. Al-Jami’ al-Islamiya. 1877. 43-bet.
7. As-Suyutiy. Tanbihul g‘aby bi tabriyati Ibn Arabiy. Saudiya Daru-l- huda.1971. 425-bet.
8. Sha’roniy Abdulvahhob. “al – Yavaqit val javohir fi bayani aqoidul akobir”. Qohira: Sharikatu maktabati Mustafa al-Halabiy, 1959. 18-bet.
9. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.
10. Sobirovich, T. B. (2024). Renewal of Societal Ideosphere: An Analytical Study of Medieval Philosophical Thought. Philosophy, 8(3), 12-18.
11. Turdiyev, B. S. (2021). Cultural and educational development of society in the scientific heritage of world philosophers. Academic research in educational sciences, 2(4), 443-451.